

PEDAGOGNING METODIK TAYYORGARLIGI VA IJODKORLIGI INNOVATSION KLASTERNI SAMARALI REJALASHTIRISHNING OMILI SIFATIDA

Abdusamatov Javlonbek Qahramon o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktab menejmenti yunalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada maqola pedagogning metodik tayyorgarligi va ijodkorligi innovatsion klasterni samarali rejalashtirishning omili to'g'risida mulohaza yuritilib, tavsiyalar berilgan.

Tayanch iboralar: Innovatsion pedagogik texnologiyalar, kasbiy mahorati, pedagogik jarayon, pedagogning metodik tayyorgarligi, ijodkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim-tarbiya, pedagogik jarayon sub'ektlari, zamonaviy pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalar.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, yangilanishlar talaba yoshlarimiz taqdiri, ularning yorug' istiqboliga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi – sifat va samaradorlik, aynan, o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadordir. Uning talabnomasi (prossiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda.

O'z ertangi kelajagiga befarq bo'lmagan, yorug' va farovon kunlarini uning egalari bo'lmish yosh avlod istiqbolida ko'rgan millat ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda:

- birinchidan, hududiy rivojlanish istiqbolaridan kelib chiqib, kasb yo'nalishlarini belgilash va joriy etish amalga oshirildi;
- ikkinchidan, ta'lim muassasalarining kasbiy yo'nalishlari loyihalashtirildi;
- uchinchidan, ta'limning moddiy-texnikaviy bazasi mustahkamlandi;
- to'rtinchidan, ta'lim muassasalari yuqori malakali pedagog va xodimlar bilan ta'minlandi;
- beshinchidan, ta'lim muassasalari faoliyatini yuritishda davlat budjet va homiylik mablag'laridan samarali foydalanildi;
- oltinchidan, ta'lim muassasalari va mehnat bozori o'rtasida uzviylikni ta'minlash ishchi kuchi talab va taklifi muvofiqlashtirildi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishini talab etadi. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishidir. Ta'lim muassasasi o'sib kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlarini yaratadi. O'qituvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo'naltirilgan bo'lishi o'qituvchi ma'suliyatini yanada oshiradi. Ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z soxasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak.

Klasterlar o'z tarkibidagi subyektlarning barqaror munosabatlariga, kichik innovatsion korxonalar va o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualarini yaratishga, mamlakatimiz ilmiy muhitida talab qilinadigan tadqiqotlarni o'tkazishga, reyting nashrlarini tayyorlashga, barqaror patent faoliyatiga, faol grant loyihalariga yo'naltirilgan bo'lib, bu ilmni tijoratlashtirish bilan bog'liq ustuvor vazifalarni

yechish imkonini beradi. Klaster yaratish innovatsion rivojlanish assotsiatsiyasini tashkil etish, tadqiqotning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish, shuningdek, klaster tizimi doirasida innovatsion g'oya va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish imkonini beradi.

Ilmiy faoliyat innovatsion tadbirkorlik faoliyatining kuchli manbai bo'lib xizmat qiladi, ammo buning uchun ilmiy maktablarning yuqori darajasi, rivojlangan innovatsion infratuzilmasi bo'lishi talab qilinadi. Shuning uchun ilm-fan, ishlab chiqarish va ta'limning integratsiyalashuvi doirasida bu jihatga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Shunday qilib, klaster ilm-fan, ishlab chiqarish va ta'lim integratsiyalashuvining ustuvor shaklidir. Ushbu integratsiya mexanizmlari mavjud resurslardan foydalanishni maksimal darajada kuchaytirish, klasterning innovatsion faoliyatini faol amalga oshirish imkonini beradi.

Rivojlangan innovatsion infratuzilmani shakllantirish nafaqat samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi, balki ishlab chiqarishda yangi texnik tizimlardan, bilim, malaka va ko'nikmalardan, insonlar xatti-harakatining modellaridan foydalanish zaruratini ham taqozo qiladi. Fan, texnika va ishlab chiqarish integratsiyasining kuchayishi natijasida bilimlar hamda axborotning ahamiyati orta boradi, pirovardida, ular inson kapitaliga aylanadi. Bu esa kadrlar tayyorlash tizimining nafaqat fan sohasi bilan, balki amaliyot bilan ham integratsiyalashuvining katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Xususan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va b.

Mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining talabalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Ta'lim jarayonida pedagoglar tomonidan:

- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- o'quv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash;
- mashg'ulotlarning loyihalashtirilishiga e'tiborning qaratilishi nafaqat o'qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi.

Pedagoglar mutaxassislik bo'yicha mavjud bilimlaridan tashqari o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalariga doir zarur bilimlarni egallagan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham, pedagoglarning malakasini oshirishda:

- o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakkurni shakllantirish;
- o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash;
- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash masalalari asosiy deb belgilanadi.

Eng muhimi pedagoglar o'quv mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish,

balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsa-da, fikr bilirishlari) ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'natirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi. O'qituvchilar o'zlari o'qitayotgan o'quvchilarining ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo'la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llay olishi kerak. Bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida birgina texnologiyaga asoslangan o'qitish uchramaydi. Odatda, o'qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llaniladi, chunki pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi loyiha, yaxlitlik, natija, ya'ni o'quv jarayonini inson va texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayondir.

Hozirgi zamon ta'lim tizimidagi amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki oldindan puxta loyihalashtirilgan dars, albatta, o'qituvchi va o'quvchiga darsni qiziqarli bo'lishi, shuningdek ijobiy natijaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshirad

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. "Xalq so'zi" gazetasi 30.09.2020.

2. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov Ta'lim sifatini boshqarish T.: "Turon-Iqbol", 2006. 590 b.

3. J.G'.Yo'ldoshev "Innovasiyalarni ta'lim jarayoniga uzluksiz ravishda tatbiq etish zamon talabi" T.: "Uzluksiz ta'lim" j. 2011. № 6, 11-15 b.